

O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA QATLAM SOTSIOLINGVISTIK TERMINLARI

Narzulayeva Go'zalxon Mashrabjon qizi

Guliston davlat universiteti 2-kurs magistranti

ilmiyizlanuvchi@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zlashma qatlamga mansub o'zbek sotsiolingvistik terminlarining lingvistik va ekstralingvistik omillar asosidagi tahlili berilgan. Ushbu terminlarning o'zbek tiliga o'zlashish yo'llari va manbalari hamda o'zbek tilidagi o'rni ko'rib chiqildi. Shuningdek, terminlar tarkibiy tahlil qilinib, ma'noviy guruhlarga ajratildi. Maqolada o'zlashma sotsiolingvistik terminlarni milliy til me'yorlariga moslashtirish, ularning izchil va aniq qo'llanilishini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, sotsiolingvistika, o'zlashma qatlam, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, kalkalash, gibrid terminlar.

СПЕЦИАЛЬНЫЕ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Нарзулаева Гозалхан Машрабжан кизи.

Студентка 2 курса Гулистанского государственного университета

ilmiyizlanuvchi@gmail.com

Аннотация: в данной статье проводится анализ узбекских социолингвистических терминов, принадлежащих к приобретательному слою, на основе лингвистических и экстралингвистических факторов. Рассмотрены пути и источники поступления этих терминов в узбекский язык и их место в узбекском языке. Также термины были структурно проанализированы и разделены на содержательные группы. В статье уделяется внимание вопросам адаптации социолингвистических терминов к



национальным языковым нормам, обеспечению их последовательного и точного использования.

Ключевые слова: терминология, социолингвистика, пласт усвоения, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы, копирование, гибридные термины.

BORROWED LAYER OF SOCIOLINGUISTIC TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Narzulayeva Guzalkhon Mashrabjon qizi
2nd year master's student of Gulistan State University
Ilmiyizlanuvchi@gmail.com

Abstract: this article analyzes the sociolinguistic terms belonging to the borrowed layer of the Uzbek language based on linguistic and extralinguistic factors. The study examines the sources and methods of adaptation of these terms into Uzbek, as well as their role within the language. Additionally, the structural analysis of the terms is conducted, and they are categorized into semantic groups. The research emphasizes the adaptation of borrowed sociolinguistic terms to the norms of the national language and ensuring their consistent and precise use.

Keywords: terminology, sociolinguistics, borrowed layer, linguistic factors, extralinguistic factors, calquing, hybrid terms.

KIRISH

Ma'lumki, xalqaro aloqalar, fanlararo integratsiya va globallashuv jarayonlari barcha fan sohalariga yangidan yangi tushuncha va terminlarni olib keladi. Tilshunos L.I.Bojno ta'kidlaganidek: "Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy

qonuniyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi”¹. Sotsiolingvistika gumanitar fanlar ichida xalqaro tajriba va muloqotga eng ko‘p asoslanadigan sohalardan biri bo‘lib, uning terminologik tizimida o‘zlashma birliklarning ham salmog‘i sezilarli darajada yuqori. Boshqa tomondan esa, sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishida Amerika, Yevropa va rus tilshunoslarining hissasi kattaligi, fan asosi va terminologiyasi aynan o‘sha hududlarda yuza kelganligi ham o‘zbek sotsiolingvistika terminlar tizimida o‘zlashma qatlam birliklarining miqdori yuqoriligini dalillaydi.

Mazkur maqolada o‘zbek sotsiolingvistikasi terminologiyasining shakllanishida tashqi manbalar qanday rol o‘ynagani, qaysi terminlar o‘zlashma qatlamga mansubligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu terminlarning kelib chiqishi, etimologik jihatdan shakllanishi hamda milliy terminologiya tizimidagi o‘rni o‘rganiladi.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, u o‘zbek sotsiolingvistikasining nazariy bazasini mustahkamlashga, terminologik tizimni tartibga solishga va milliy terminlarning ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Natijada, milliy sotsiolingvistik terminologiyaning yanada mukammallashishi va rivojlanish yo‘nalishlari aniqroq belgilanadi.

MUHOKAMA

O‘zbek sotsiolingvistikasi terminologiyasining shakllanishida xorijiy tillardan olingan terminlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, rus va ingliz

¹ Божно Л.И. научно –техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка// Филологические науки.1971.№5 . –С.103

tillaridan kirib kelgan atamalar XXI asrdan boshlab o'zbek lingvistik terminologiyasiga faol kirib keldi.

O'z qatlam terminlari milliy tilni rivojlantirish, ilmiy atamalarni xalq tiliga yaqinlashtirish va tushunarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Ammo global ilmiy hamjamiyat bilan bog'lanish jarayonida bu terminlar ba'zan yetarli bo'lmaydi va yangi o'zlashmalar talab etiladi. O'zlashma qatlamga chet tillaridan o'zlashib, fonetik yoki morfologik jihatdan moslashgan terminlar kiradi. Asosan lotin, yunon, rus, ingliz, fransuz va boshqa tillardan o'zlashgan bo'lib, ular xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan bog'lanishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu terminlar global ilmiy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ko'p tillarda deyarli o'xshash shaklda ishlatiladi. O'zlashma qatlam terminlariga quyidagilar kiradi: *adresant (kommunikator), adresat (kommunikant), argo, attraksiya, avtonomlik, axroniya, bazis, bilingv, diafonema, diaxron sotsiolingvistika, differentsiatsiya, diglossiya, divergensiya, etnolektlar, evfemizm, ezoterik leksika, fonetik interferensiya, gender variativlik, glottogonik konvergensiya, grammatik interferensiya, grammatologiya, idiolekt, integratsiya, interferensiya, jargon, polilingvizm, kod, kodifikatsiya, kontaktologiya (kreolistika), konvergensiya, koyne, krio, leksifikator, lingvistik sotsializatsiya, monoglossiya, naxroniya, pidjin, kreolizatsiya, poliglossiya, poliglott (polilingv), prepijin, slen, sotsiolekt, sotsium va h.*

Ingliz olimlari tomonidan sotsiolingvistika faniga tamal toshi qo'yilganligi sababli ingliz tili zamonaviy sotsiolingvistika terminologiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan va o'zbek tiliga ham ko'plab terminlar ingliz tilidan o'zlashgan: *Interferensiya (interference), bilingvizm (bilingualism), diglossiya (diglossia), pijin (pidgin), kreolizatsiya (creolization), jargon (jargon), evfemizm (euphemism),*

variativlik (varieties of language), kommunikativ kompetensiya (communicative competence), standartlashtirish (standardization), kod o'zgarishi (code-switching).

Shuningdek, o'zbek sotsiolingvistikasi terminlarining nazariy asoslari rus sotsiolingvistikasi orqali kirib kelganligi sababli o'zlashma qatlam terminlarining aksariyati rus tilidan bevosita yoki tarjima orqali o'zbek tiliga kiritilgan: *assimilatsiya (ассимиляция), attraksiya (аттракция), avtonomlik (автономность), bilingv (билингв), dialektologiya (диалектология), diaxron sotsiolingvistika (диахронная социолингвистика), differentsiatsiya (дифференциация), diglossiya (диглоссия), divergensiya (дивергенция), evfemizm (эвфемизм), interferensiya (интерференция), kodifikatsiya (кодификация), kommunikativ kompetensiya (коммуникативная компетенция), kontaktologiya (контактология), konvergensiya (конвергенция), koynе (койне), lingva-franka (лингва-франка), makrosotsiolingvistika (макросоциолингвистика), mikrosotsiolingvistika (микросоциолингвистика), monoglossiya (монологсия), monolingvizm (монолингвизм), norma (норма), paralingvistika (паралингвистика), poliglossiya (полиглоссия), sinxron sotsiolingvistika (синхронная социолингвистика), sleng (сленг), sotsiolingvistika (социолингвистика), sotsium (социум), stratifikatsion variativlik (стратификационная вариативность), standartlashtirish (стандартизация).*

Aynan o'zbek tiliga o'zlashish jarayoni rus va ingliz tili orqali bo'lsa-da o'zlashma terminlar etimologik jihatdan turli tillarga mansub:

1. Fransuzcha terminlar: *differentsiatsiya (différenciation – farqlanish), kreolistika (créole – kreol tillari haqidagi fan), argo (argot – maxsus guruh*

leksikasi), *jargon* (jargon – kasbiy yoki ijtimoiy guruh tili), *kod* (code – belgilar tizimi) va b.

2. Lotincha terminlar: *monolingvizm* (monolingua – bitta tilga egalik), *bilingvizm* (bilingua – ikki tilda soʻzlashish), *sotsium* (societas – jamiyat), *kommunikatsiya* (communicatio – axborot almashish), *norma* (norma – qoidalar majmuasi) va b.

3. Yunoncha terminlar: *axroniya* (a- + chronos – vaqt tushunchasining yoʻqligi), *diglossiya* (di- + glossa – ikki tildan foydalanish holati), *koyne* (koiné – umumiy til shakli), *glottogoniya* (glotta + gonos – til kelib chiqishi), *konvergensiya* (convergere – bir yoʻnalishga intilish) va b.

4. Boshqa tillardan oʻzlashgan terminlar: *pidjin* (bei chin – pul toʻlamoq, xitoycha), *adresat* (adressat – qabul qiluvchi, nemischa), *adresant* (adressant – yuboruvchi, nemischa), *kreol* (créole – mahalliy sharoitda tugʻilgan kishi, fransuzcha; criollo, ispancha; crioulo, portugalcha) va b.

Bunda ingliz va rus tillaridan bevosita (toʻgʻridan-toʻgʻri) oʻzlashish, boshqa tillardan esa bilvosita oʻzlashish holatlari roʻy bergan.

Oʻzlashma qatlam terminlari ham oʻz navbatida quyidagi maʼnaviy guruhlariga ajraladi:

1. Til holati va rivojlanishi bilan bogʻliq terminlar: *standart til* (adabiy meʼyor asosida shakllangan rasmiy til), *differensiatsiya* (tilning turli dialektlarga boʻlinishi), *diglossiya* (jamiyatda ikkita til yoki til shaklining parallel ishlatilishi), *divergensiya* (til birliklarining ajralib borishi), *konvergensiya* (turli tillar yoki lahjalarning yaqinlashishi), *kreollashtirish* (pidjin tilining mustaqil tilga aylanishi), *interferensiya* (bir tilning boshqa tilga taʼsiri).

2. Til va jamiyat o‘zaro munosabatlari: *lingvistik sotsializatsiya* (til orqali ijtimoiylashuv), *stratifikatsion variativlik* (ijtimoiy tabaqaalarga ko‘ra til o‘zgarishlari), *gender variativlik* (tilga jinsiy tafovutlarning ta’siri), *sotsium* (jamiyat yoki ijtimoiy guruh), *ideologiya* (til va jamiyatdagi g‘oyaviy yo‘nalish).

3. Nutq jarayoni va kommunikatsiya: *adresant* (xabarni yetkazuvchi), *adresat* (xabarni qabul qiluvchi), *kommunikatsiya* (axborot almashish jarayoni), *kommunikativ kompetensiya* (samarali muloqot qobiliyati), *kod* (muloqot jarayonidagi til yoki belgilar tizimi), *subkod* (asosiy kodning kichik tizimi), *norma* (til me’yorlari), *norma buzilishlari* (til me’yorlariga zid birliklar), *paralingvistika* (nutq bilan bog‘liq bo‘lmagan kommunikativ omillar).

4. Ikki va ko‘p tillilik bilan bog‘liq tushunchalar: *bilingv* (ikki tilli shaxs), *individual bilingvlar* (har bir tilni alohida o‘zlashtirgan shaxslar), *koordinativ bilingvizm* (ikkita tilni mustaqil o‘zlashtirish), *sof bilingvizm* (ikkita tilni teng darajada bilish), *subordinativ bilingvizm* (bir tilni ikkinchi til orqali o‘rganish), *polilingvizm* (uch yoki undan ortiq tillarni bilish), *lingva-franka* (turli tillarda so‘zlashuvchilar uchun umumiy aloqa tili), *poliglott* (bir nechta tilni biluvchi shaxs), *pidjin* (soddalashtirilgan aloqa tili), *prepidjin* (pidjin shakllanish jarayonidagi bosqich), *monoglossiya* (faqat bitta til ishlatiladigan til holati), *monolingvizm* (bitta tilni bilish va ishlatish), *poliglossiya* (bir jamiyatda bir nechta til shakllarining mavjudligi),.

5. Hududiy til variantlari: *dialekt* (muayyan hududga xos til shakli), *etnolektlar* (etnik guruhlariga xos til shakllari), *koyne* (turli lahjalarning aralashmasidan shakllangan umumiy til), *sotsial dialekt* (ijtimoiy guruhlariga xos til shakllari),.

6. Maxsus va yashirin tillar: *argo* (ma'lum ijtimoiy guruhga xos yashirin til), *jargon* (norasmiy nutq shakli), *sleng* (yoshlar orasida keng tarqalgan norasmiy til), *ezoterik leksika* (faqat ma'lum guruh tushunadigan maxsus so'zlar).

Mazkur terminlar tarkibiy tuzilishi ham o'ziga xos. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z qatlam terminlardan farqli ravishda o'zlashma qatlamda bir komponentli terminlar ham salmoqli o'ringa ega, uch komponentli terminlar juda kam bo'lsa, to'rt va undan ortiq komponentli terminlar uchramaydi:

Bir komponentli terminlar: *argo*, *axroniya*, *bazis*, *bilingv*, *diafonema*, *dialekt*, *diglossiya*, *evfemizm*, *jargon*, *kod*, *koyne*, *krio*, *norma*, *pijin*, *sinergetika*, *sleng*, *sotsium*, *subkod*, *substrat*, *adresant*, *kommunikator*, *adresat*, *kommunikant*, *diasemiya*, *dialeksiya*, *differentiatsiya*, *divergensiya*, *ideologiya*, *kodifikatsiya*, *kommunikatsiya*, *konvergeniya*, *leksifikator*, *marunlar*, *monoglossiya*, *monolingvizm*, *paralingvistika*, *poliglossiya*, *polyglot*, *polilingv*, *prepijin*, *sotsiolingvistika*, *standartlashtirish*, *vulgarizmlar*, *varvarizmlar*, *assimilyatsiya*, *attraksiya*, *avtonomlik*, *grammatologiya*, *integratsiya*, *naxroniya*, *kontaktologiya*

Ikki komponentli terminlar: *fonetik interferensiya*, *diaxron sotsiolingvistika*, *gender variativlik*, *grammatik interferensiya*, *individual bilingvlar*, *lingva-franka*, *lingvistik sotsializatsiya*, *lingvistik sotsiologiya*, *paradigmatik neytralizatsiya*, *sintaktik interferensiya*, *sinxron sotsiolingvistika*, *sotsial dialekt (sotsiolekt)*, *stratifikatsion variativlik*, *kommunikativ kompetensiya*, *koordinativ bilingvizm*, *paradigmatik neytralizatsiya*, *sinxron neytralizatsiya*

Uch komponentli terminlar: *leksik-semantik interferensiya*, *struktur-diaxronik konvergeniya*.

O‘zlashma terminlarni komponent tuzilishiga ko‘ra tahlilida o‘zbek tili qonuniyatlariga asoslanildi. Termin chet tilida affiksatsiya usulida yasalgan bo‘lsa-da, o‘zbek tiliga tub holatda o‘zlashganligi va shu holatda qo‘llanilishi inobatga olindi.

Ushbu terminlarning o‘zbek tilida barqarorlashuvi va normativ holatga kelishi sotsiolingvistikaning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zlashma qatlamning o‘zbek tiliga kirib kelishi nafaqat lingvistik rivojlanishga, balki ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ularni izchil o‘rganish, tasniflash va adabiy me‘yor asosida shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dadaboyev H, Usmonova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: “Universitet”, 2014. – 135 b.
2. Jo‘rayeva B. Sotsiolingvistika (metodik qo‘llanma). – Buxoro : “Sadriddin Salim Buxoriy” Durдона, 2019. – 40 b.
3. Usmonova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2014. – 85 b.
4. Usmanova Sh. Sharq mamlakatlari sotsiolingvistikasi (o‘quv qo‘llanma). – T., 2016. – 164 b.
5. Aliqulov Z., Boymirzaeva S. Sotsiolingvistika. (ma‘ruzalar matni). – Samarqand: SamDU nashri, 2009. – 97 b.
6. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолінгвістیکаси. Университет ва педагогика олий ўқув юртлари филология факултетларининг ўзбек тили ва



адабиёти бакалаври ва магистратура йўналиши учун дарслик-қўлланма. – Хўжанд.: Маърифат, 2015. – 190 б.

7. Ishayev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 2013.

8. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A.va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.

9. Божно Л.И. научно –техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка// Филологические науки.1971.№5 . – С.103